

OZOD SHARAFIDDINOVNING PUBLITSISTIK MEROSIDA

MA'NAVIY YUKSALISH

Farangiz ABRUYEVA

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti jurnalistika
fakulteti 1-bosqich talabasi

Abstract: This article examines the role of Ozod Sharafiddinov in the development of Uzbek literature and journalism, his journalistic activity and contribution to literary criticism. Sharafiddinov's works aimed at preserving national spirituality, promoting freedom of creativity and the importance of literature in society are analyzed. The article shows that he paid attention to the issues of human dignity, national independence, justice and spirituality, and describes his scientific analysis of the creative activities of writers and poets.

Keywords: Ozod Sharafiddinov, journalism, literary criticism, Uzbek literature, national spirituality, freedom of creativity, human dignity, national independence, literary studies, spiritual values.

Аннотация: В статье рассматривается роль Озода Шарафиддина в развитии узбекской литературы и журналистики, его публицистическая деятельность, а также его вклад в литературную критику. Анализируются произведения Шарафиддина, направленные на сохранение национальной духовности, пропаганду свободы творчества, значение литературы в обществе. В статье показано его внимание к вопросам человеческого достоинства, национальной независимости, справедливости и духовности, а также описан его научный анализ творчества писателей и поэтов.

Ключевые слова: Озод Шарафиддинов, публицистика, литературная критика, узбекская литература, национальная духовность, свобода творчества, человеческое достоинство, национальная независимость, литературоведение, духовные ценности.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ozod Sharafiddinovning o‘zbek adabiyoti va jurnalistikasi rivojida tutgan o‘rni, uning publitsistik faoliyati va adabiy tanqidchilikdagi hissasi yoritilgan. Sharafiddinovning milliy ma’naviyatni asrash, ijod erkinligi va adabiyotning jamiyatdagi ahamiyatini targ‘ib etishga qaratilgan asarlari tahlil qilingan. Maqola davomida uning inson qadr-qimmati, milliy mustaqillik,adolat va ma’naviyat masalalariga e’tibor qaratganligi ko‘rsatilib, yozuvchilar va shoirlarning ijodiy faoliyatiga bergen ilmiy tahlillari bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: Ozod Sharafiddinov, publitsistika, adabiy tanqid, o‘zbek adabiyoti, milliy ma’naviyat, ijod erkinligi, inson qadr-qimmati, milliy mustaqillik, adabiyotshunoslik, ma’naviy qadriyatlar.

O‘zbek adabiyoti va jurnalistikasida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan taniqli publitsistlardan biri Ozod Sharafiddinovdir. U o‘zining adabiy-publitsistik maqolalari va tahliliy asarlari orqali millat, adabiyot, madaniyat hamda ijtimoiy hayot masalalarini yoritishda faol qatnashgan. Sharafiddinovning ijodi, asosan, xalqni ma’rifatli qilish, ijtimoiyadolat va vatanparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qilishga qaratilgan. Uning publitsistikasi chuqur ijtimoiy mazmun, keng tahliliy yondashuv va adabiy uslubda yozilganligi bilan ajralib turadi. Ozod Sharafiddinov o‘z maqolalarida jamiyatning dolzarb muammolarini, adabiy va madaniy taraqqiyotning muhim jihatlarini muhokama qilgan. Shuningdek, u adabiyotshunos sifatida yozuvchi va shoirlarning ijodiy faoliyatini tahlil qilishda katta hissa qo‘shgan. Uning publitsistik asarlari orasida quyidagi mavzular alohida e’tiborga loyiq. Adabiyot va milliy o‘zlik: Sharafiddinov milliy o‘zlikni shakllantirishda adabiyotning o‘rni haqida ko‘plab maqolalar yozgan. U o‘zbek adabiyotining rivojlanishi uchun ijod erkinligi va milliy qadriyatlarga e’tibor qaratgan. U jamiyatda madaniyatni rivojlantirish va yoshlarga ma’naviy tarbiya berish

masalalariga ko‘p urg‘u bergen. O‘zbek adabiyotining buyuk namoyondalarini, Sharafiddinov o‘z maqolalarida Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat kabi yozuvchi va shoirlarning ijodini tahlil qilib, ularning millat hayotidagi ahamiyatini yoritgan. U adabiyotshunoslikda tanqidiy yondashuvning ahamiyatini ko‘rsatib, yozuvchilarining ijodiy ishlari bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini ilmiy asosda bayon qilgan. Ozod Sharafiddinovning publitsistikasi milliy ma’naviyatni tiklash va rivojlantirish, shuningdek, jamiyatni ilm-fan, adabiyot va san’at orqali taraqqiy ettirishga qaratilgan faoliyatning yorqin namunalaridan biridir. Ozod Sharafiddinovning publitsistik faoliyati O‘zbekistonning ijtimoiy, madaniy va ma’naviy hayotida chuqur iz qoldirgan. Uning maqolalari, tanqidiy-tahliliy asarlari va publitsistik chiqishlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Ayniqsa Inson qadr-qimmati va erkinlik borasida, Sharafiddinov maqolalarida insonning erkin fikrlashi, qadr-qimmati va o‘zligini anglash masalalariga katta e’tibor qaratgan. U doimo jamiyatdagi nosozliklarni tanqid qilgan va ularni bartaraf etish yo‘llarini izlagan. Milliy mustaqillik va madaniyat borasida, U o‘z publitsistikasida milliy mustaqillik g‘oyasini keng targ‘ib qilgan. Sharafiddinovning fikricha, millat o‘z o‘zligini anglamasa, mustaqillikning ma’nosи yo‘qoladi. Adabiyot va ma’naviyat borasida, Sharafiddinov o‘z maqolalarida milliy adabiyotning ijtimoiy hayotdagi o‘rnini keng yoritgan. U shoir va yozuvchilar ijodini chuqur tahlil qilib, ularning ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyatini oolib bergen. Ozod Sharafiddinovning publitsistik merosi serqirra va mazmunan boy bo‘lib, u nafaqat adabiy tanqidchi sifatida, balki jamiyat muammolarini chuqur ko‘tarib chiqqan publitsist sifatida ham tanilgan.

U ilmiy faoliyatida o‘zbek filologiyasining dolzarb mavzularida qalam tebratdi. Jumladan, poeziya muammolari bilan shug‘ullandi, o‘zbek she’riyati haqida adabiy-tanqidiy maqolalar yozdi. O‘scha davrdagi ilmiy-ijodiy, adabiy-tanqidiy izlanishlari “Zamon. Qalb. Poeziya” (1962) asarida o‘z aksini topgan. XX asrning 60-80-yillarida Cho‘lpon hayoti va ijodini targ‘ib qilishga intildi. Ozod Sharafiddinov o‘zbek adabiyotining Oybek, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Zul-fiya singari namoyandalari haqida adabiy portretlar yaratdi. Olim ijodida o‘zga

adabiyotlar namoyandalari ijodi haqida yaratilgan “Yalovbardorlar” (1974) adabiy-tanqidiy ocherklar kitobi muhim o‘rin egallaydi. XX asrning 60-yillaridan XXI asrgacha bo‘lgan o‘zbek adabiy jarayonidagi holatlarni “Talant – xalq mulki” (1979), “Adabiyot – hayot darsligi” (1981), “Go‘zal-lik izlab” (1985), “Haqiqatga sadoqat” (1988), “Sardaftar sahi-falari” (1999), “Prezident” (2003) singari asarlarida aks ettirdi.

Mustaqillik yillarida Ozod Sharafiddinov ham adabiy tanqidchi, ham tarjimon, ham jamoat arbobi sifatida ulkan ishlarni amalga oshirdi. “Cho‘lpon” (1991), “Cho‘lponni anglash” (1994) kitoblari, “E’tiqodimni nega o‘zgartirdim” (1997) asarlarida munaqqidning estetik prinsiplari aks etgan. O‘z-bek adiblari, madaniyat-san’at arboblari, olimlar haqida o‘nlab maqolalar yozdi.U jahon adabiyotining ko‘plab namoyandalari asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qildi. “Ko‘lmak suvda quyosh parchasi” (Fransuaza Sagan), “Qadimgi xitoy nasri namunalar”, “Monumental targ‘ibot” (Vl. Voynich), “Alkimyogar” (Paulo Koelo) sin-gari asarlar shular jumlasidan. Atoqli olim o‘tgan asrning 60-yillaridan adabiyotshu-nos sifatida tanilgan. “Zamon. Qalb. Poeziya” (1962) kitobida adabiy asarlarni badiiylik qonuniyatları nuqtai nazaridan tadqiq etgan. Uning tadqiqotlari adabiyotni milliy g‘oyalar va adabiy qonuniyatlar asosida tahlil qilishga bag‘ishlangan. “Adabiy etyudlar” (1968) kitobida ijodkor shaxsi va uning badiiy asardagi o‘rni masalalari talqin qilingan. “Yalov-bardorlar” (1974), “Iste’dod jilolari” (1976) to‘plamlariga kiritilgan ilmiy maqolalari adabiy ijoddagi an’analar, mumtoz adabiyotni o‘rganish vositalari va jahon adabiyoti tajribalarini tadqiq va tahlil qilishga bag‘ishlangan. Olim ijodining cho‘qqisi – “Ijodni anglash baxti” (2004) kitobida o‘zbek adabiyotining jahon adabiy jarayoni-da tutgan o‘rni va ilmiy-ma’naviy o‘zanlari tadqiq etib berilgan.

Ozod Sharafiddinov “XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi” o‘quv dasturi (1997), “XX asr o‘zbek adabiyoti” (1999) darsligi mualliflaridan. Mustaqil yurtimizda birinchi marta 1997-yilda “Jahon adabiyoti” jurnali tash-kil etildi. Dunyo badiiyatining eng yaxshi namunalarini o‘zbek kitobxonlariga yetka-zish mo‘ljallangan va milliy adabiyoti-miz tajribalarini jahon miqyosida omma-lashtirishni ko‘zda tutgan mazkur

nashrning birinchi bosh muharriri sifatida adabiy jamoatchilik orasida katta mavqega ega bo‘lgan olim Ozod Sharafiddinov tanlandi. Ezgu niyatlar bilan tashkil qilingan journal ilk sonlaridanoq o‘z mushtariylarini topdi. Hozirgacha chop etilgan sonlarida dunyo adabiyotining turli janrlariga xos ko‘plab namunalar ona tilimizda kitob-xonlarga taqdim etildi. Ayni kunlarda ham nashr jamoasi birinchi bosh muharrir, ustoz Ozod Sharafiddinov an’analarini davom ettirib, “Jahon adabiyoti” sahifalarida yetti iqlimning eng nodir so‘z mo‘ji-zalarini e’lon qilib kelmoqda.

Sharafiddinovning asosiy g‘oyalaridan yana biri shundaki, adabiyot faqat san’at emas, balki jamiyatni tarbiyalaydigan va uning ma’naviy asoslarini mustahkamlaydigan kuchdir. U milliy adabiyotning ahamiyatini ta’kidlab, yozuvchilarining mas’uliyatini eslatgan. U jamiyatda adabiyotning ijtimoiy missiyasini targ‘ib qilgan. Adabiyotning badiiy qadr-qimmatini saqlash va uni jamiyatning ma’naviy taraqqiyoti yo‘lida ishlatish uning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lgan. Sharafiddinov o‘z davrida jamiyatda mavjud bo‘lgan kamchiliklarni oshkora tanqid qilgan. U ijtimoiy tengsizlik,adolatsizlik va ma’naviy qashshoqlikni o‘tkir tanqid ostiga olgan. Uning maqolalari tanqidiy ruhda bo‘lsa-da, ular jamiyatni yaxshilash, yangi fikrlarni ilgari surish va muammolarga yechim topishga qaratilgan. Sharafiddinov publitsistikasida o‘zbek tili va adabiyoti rivoji bo‘yicha dolzARB masalalar ko’tarilgan. Binobarin, tanqidchi badiiy asariami baholash jarayomda shu asar tufayli qalbda tug‘iluvchi his-hayajonni ham ifodalab bergen. Shu nuqtada adabiy tanqidning ilm va san’at bilan uyg‘unlashgan o‘ziga xos xususiyati ko‘zga tashlanadi: tanqidchi ilmiy tafakkurga, mantiqiga o‘z badiiy tafakkurini singdirgan, ularning o‘zaro birligini ta’minlab vazifasini teran ado etgan. Va his-hayajon va obrazlilik bilan charxlangan fikr sovuqqon, hissiz fikrga nisbatan o‘quvchida kuchli ishonch hosil qilgan va ífoda etilayotgan tuyg‘u ham muayyan balog‘at kasb etgan. U o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini mustahkamlash va uni ilmiy, adabiy va madaniy sohalarda keng qo‘llashni targ‘ib qilgan. U o‘zbek adabiyotini dunyo miqyosiga olib chiqish, uni boshqa millatlar adabiyoti bilan tenglashtirish tarafдори bo‘lgan. Ozod Sharafiddinovning publitsistikasi – bu milliy ma’naviyatni asrash va rivojlantirish

yo‘lidagi muhim hissadir. Uning maqolalari va tanqidiy tahlillari bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, o‘zbek jamiyati va madaniyatining taraqqiyotida beqiyos rol o‘ynaydi. Sharafiddinov ijodini o‘rganish orqali milliy o‘zlik va ma’naviyatning boy qatlamlarini chuqurroq anglash mumkin. Ozod Sharafiddinov adabiyotning bosh vazifasi Olam, Inson va uning qalbini tasvirlash degan azaliy qadriyat, ya’nikim bag’ri butunlikda ekanligiga sodiq qoldi. Ozod Sharafiddinov ijod qilgan kattakon davrda o‘zbek adabiyotida jahon adabiyoti talablariga javob bera oladigan bir talay asarlar yaratildi. Shuhrat, Said Ahmad, Shukrullo, ularning izidan kelgan Pirimqul Qodirov va Odil Yoqubov, so’z san’atimizga yangi qon bo’lib qo’shilgan O’tkir Hoshimov va Shukur Xolmirzaev, she’riyatimiz ufqlarini kengaytirgan Erkin Vohidov va Abdulla Oripov singari o’nlab, yuzlab ijodkorlar biri-biriga o’xshamagan, betakror asarlar yaratdilar. Shunda Ozod Sharafiddinovning "Iste’dod - Xalq mulki" degan iborasi mag’rur jarangladi. Uning yutuqlaridan quvongan munaqqid har bir yaxshi namunasini kitobxon ahliga yaqinlashtirdi, ijodkor nazarda tutmagan jihatlarini kashf etdi, xalq farzandlarini adabiyotni tushunishga o’rgatdi. Ozod Sharafiddinov iste’dodini, kelajakda katta ijodkor olim bo’lishini Abdulla Qahhordek ulug’, xalqimiz sevgan adibimiz ko’ra bilgan va mehr qo’yib, bag’riga olgan edi. Abdulla Qahhor suhbatlarining birida Ozod Sharafiddinovni tilga olib: "Shunday yozmoq kerakki, nosfurush sening kitobing sahifasiga nos o’rab sotgan bo’lsa, uyida uni ochib, matniga ko’zi tushgan odam: "Ey, bu Ozodning gaplari-ku", deya sahifani ehtiyyot qilib, olib qo’ysin". Bu haq gapni tan olgan va qadrlay bilgan Ozod Sharafiddinov "... bundek mukammal yozmoq uchun, bu darajada barkamol san’at namunasini yaratmoq uchun ijodkor Abdulla Qahhordek mehnatkash bo’lmog’i lozim. Bu esa hammaga ham nasib qilavermaydi. Faqat o’z Vatanini jon dilidan yaxshi ko’rgan, o’z xalqini har tomonlama barkamol ko’rishni istagan, ko’ksida istiqlol yolqini barq urib turgan san’atkorgina bu baxtga musharraf bo’ladi", deb qayd etgan edi. Ustozni bunday ulug’lash va ularga ta’zim qila bilish uchun Ozod Sharafiddinovdek adabiyotshunos bo’lib yetilmoq kerak. Xulosa qilib aytganda, Ozod Sharafiddinov o‘zbek publisistikasi va adabiy tanqidchiligidagi yorqin iz qoldirgan

shaxsdir. Uning asarlari milliy qadriyatlarni tiklash, adabiyotning ijtimoiy ahamiyatini olib berish va inson qadr-qimmatini ulug'lashga qaratilgan. Sharafiddinovning tanqidiy va tahliliy yondashuvlari, milliy mustaqillik va ma'naviy taraqqiyotga oid g'oyalari bugungi kunda ham dolzarbdir. U o'z davrining jamiyatidagi muammolarni teran tahlil qilib, ularni hal etish yo'llarini ko'rsatgan. Uning ijodi milliy ma'naviyatni yuksaltirish yo'lida bebaho manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharafiddinov, O. Adabiyot va tanqid. Toshkent: Fan, 1978.
2. Abdulla Qahhor suhbatlaridan. Sharafiddinov haqida xotiralar.
3. Vohidov, E. Yozuvchi va jamiyat. Toshkent: Adabiyot nashriyoti, 1982.
4. Qodirov, P. O'zbekiston adabiyotining rivojlanish yo'li. Toshkent: Ma'naviyat, 1995.
5. Sharafiddinov, O. Milliy qadriyat va ma'naviyat. Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1983.
6. O'zbek adabiyotining taniqli vakillari haqida yozilgan xotiralar va maqolalar.
7. O'zbek adabiyotining milliy qadriyatlar bilan bog'liq rivojlanishiga oid ilmiy adabiyotlar.